



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 14 - oktabr

160-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda quyidagi tovarlar va transport vositalari uchun:

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha yuridik shaxslar tomonidan, shu jumladan, lizing shartnomasi asosida olib kiriladigan yangi tibbiyot asbob-uskunolari, butlovchi buyumlar va ularning ehtiyot qismlari hamda sarflash materiallari;

nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun olib kiriladigan yangi tez tibbiy yordam avtomobillari (TIF TN kodlari 8703 22 101 0, 8703 23 193 0, 8703 24 101 0, 8703 31 101 0; 8703 32 191 0, 8703 33 191 0);

belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro‘yxatlarga ko‘ra tematik xiyobonlar, mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarini qurish, qayta ta‘mirlash va jihozlash uchun asbob-uskunalar, texnika, xomashyo, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, qurilish va boshqa materiallar (shu jumladan, mebel va inventar);

ishlab chiqarilganiga 5 yildan ortiq bo‘lmagan, yo‘lovchilarni tashishda foydalaniladigan hamda haydovchidan tashqari sakkiz va undan ortiq o‘rindiqlarga ega bo‘lgan transport vositalari;

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, transport-logistika xizmatlari ko‘rsatishga mo‘ljallangan, belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan omborxonalar, yuk ortish-tushirish texnikasi, agregatlar, ehtiyot qismlar va boshqa tovarlar;

dor (osma) yo‘llari, tog‘-chang‘i ko‘targichlar, funikulyorlar va boshqa o‘xshash obyektlar, “banji-jumping” va “ziplayn” attraksionlari, boshqariladigan (dirijabl, havo shari) va boshqarilmaydigan (erkin uchish) aerostatlar, gondolalar, “rafting” va “flaybording” uchun uskunalar, mexanizmlar va ehtiyot qismlar, shuningdek, “buggy car”, faetonlar, joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan (g‘ildirak ustidagi uylar) yoki kafe-furgonlarga aylantirilgan “fudtrak” yer usti transport vositalari, motorli qayiq va kvadrotsikllar qonunchilikda nazarda tutilgan bo‘jxonalar bo‘yi bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddati 2024-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilganligi, bunda g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun, agar ularning ishlab chiqarilganligiga 4 yildan ortiq bo‘lmasa hamda “Yevro-5” va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos kelsa, 2024-yil 1-yanvarga qadar utilitatsiya yig‘imining nol stavkasi qo‘llanilishi belgilanganligi;

2021-yil 1-oktabrdan boshlab 2024-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda quyidagi tovarlar:

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha ta‘lim tashkilotlari uchun o‘quv laboratoriyasi va maxsus asbob-uskunalar va jihozlar;

taqiqlanmagan o‘yin avtomatlari (TIF TN kodi 9504 30 200 1, 9504 30 200 9), videoo‘yinlar uchun uskunalar (TIF TN kodi 9504 30 100 0) va bouling uchun avtomatik uskunalar (TIF TN kodi 9504 90 800 9);

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha yuridik shaxslar tomonidan, shu jumladan, lizing shartnomasi asosida olib kelinadigan yangi stomatologiya va kosmetologiya asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va ularning ehtiyot qismlari hamda sarflash materiallari bo‘jxonalar bo‘jidan ozod qilinganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi “Nazorat-rejasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Mamanov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 14 октябрдаги
160-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

Вилоят ҳокимлигининг О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi

NAZORAT-REJASI

T/r	Qaror bandlari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarilish muddati	Mas’ul ijrochilar	
				Viloyat tashkilotlari	Mas’ullar
1.	Turizm, umumiy ovqatlanish va chakana savdo sohasini yanada rivojlantirish maqsadida infratuzilma yetarli rivojlanmagan yoki kapital qurilish obyektlarini barpo qilish bo‘yicha cheklovlar mavjud bo‘lgan magistral yo‘llari bo‘ylab, shu jumladan, turistik zonalarda kafe-furgonlarga aylantirilgan “fudtrak” transport vositalarini joylashtirish uchun maxsus joylar ro‘yxatini tuzilishini va “K-SAVDO” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga joylashtirilishini ta‘minlash.	1. Infratuzilma yetarli rivojlanmagan yoki kapital qurilish obyektlarini barpo qilish bo‘yicha cheklovlar mavjud bo‘lgan magistral yo‘llari bo‘ylab, shu jumladan turistik zonalarda kafe-furgonlarga aylantirilgan “fudtrak” transport vositalarini joylashtirish uchun maxsus joylar ro‘yxati tuzish; 2. Shakllantirilgan maxsus joylar ro‘yxatini “K-SAVDO” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga joylashtirish.	2021-yil 14-oktabr	Viloyat hokimligi, viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi, viloyat Avtomobil yo‘llari boshqarmasi, Kadastr agentligi viloyat hududiy boshqarmasi, viloyat Davlat soliq boshqarmasi, viloyat Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi	F.Mamanov J.To‘rayev, J.Qilichov, S.Shaymardanov, S.Eshmatov, S.Shaymardanov, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari